

OILAVIY BOLALAR UYLARI BOLALARIGA G'AMXO'RLIK QLISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

**To`raqulov Laziz Tirkashevich, katta o`qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya:Ushbu maqolada xorijiy davlatlar olimlarining mehribonlik uyi haqida fikrlari,mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlari, oilaviy mehribonlik uylarini tashkil etilishi, bolalar salbiy ijtimoiy xodisalarni yuzaga keltirish sabablari ,ota-onalar,milliy gvardiya faoliyati, Vazirlar maxkamasi qarorlari va farmoyishlari jamlangan.

Kalit so'zlar:Mehribonlik uyi, oila tipidagi mehribonlik uyi, mehr-meruvvat, hayr-saxovat, insonparvarlik, oilalarning mustahkamligi, tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuvi, pedagogika-psixologiya, yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, yetimlik va ijtimoiy etimlik va shu kabi tushunchalar o`rin olgan.

Bola dunyoga keldimi ota-onalik bo`lish, ota-onasi bilan birga yashash, oilada erkin miloqot qilish, opa-singil, aka-uka va boshqa yaqin qarindoshlari bilan birga yashash xuquqiga ega. Bolaning bolaligini o`g`irlashga hech kimning xaqqi yo`q. Yurtboshimiz «O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yunalishlari» degan asarida shunday yozadi: «G`animlar nimalar deb saf-satasotmasin, O`zbekiston rahbariyati va xalqining tutgan yo`li qat`iy va mustahkam: biz doimo mehr-muruvvat, mehr-oqibat, yurtimizda tinchlik-totuvlik, xotirjamlikni saqlashga sodiq bo`lib qolaveramiz. Vatandoshlarimiz bir-birlariga yelkadosh, ahil va inoq bo`lib yashashida, yetim- yesirlar, nogironlar, qariyalar va bolalar, qarovsiz va muhtoj kishilarimiz himoyasini tashkil qilishda o`zimizning kuchimizni va mehnatimizni hech qachon ayamaymiz».[2]. Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylari faoliyatini yaxshilashga doir maxsus qonunlar chiqdi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va farmoyishlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, normativ xujjatlari e`lon qilindi. Shu xujjatlar asosida «Mehribonlik uyi to`g`risi da Nizom» qabul qilindi bu tarixiy ahamiyat kasb etadi. Mehribonlik uylari to`g`risidagi Nizomning 1-qism, 3-moddasida shunday deyilgan: «Mehribonlik uyining asosiy vazifasi oilaviy muhitdan maxrum bulgan bolalar va o`smirlarni to`liq, ruhiy sog`lomlashtirishga, ijtimoiy mehnat moslashuviga va ijtimoiy-xuquqiy himoya qilishga ko`maklashuvchi uy sharoitiga eng ko`p darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratishdir» [3].

Bu vazifani amalga oshirishda avvalo ta`lim-tarbiyaning roli benihoya kattadir. Mehribonlik uylarida ta`lim-tarbiya ishlarini olib borish davlata hamiyatiga ega bo`lgan dolzarb masaladir. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yuqotganda, shuningdek, boquvchisidan maxrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta`minot olish huquqiga ega». O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 64-moddasida Yuqoridagi qonunlar

fikr yuritishni yanada oydinlashtiriladi. «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan maxrum boʻlgan bolalarni boqish, tarbiyalash va oʻqitishni taʼminlaydi, bolalarga bagʻishlangan xayriya faoliyatlarni ragbatlantiradi» deyilgan.[1].

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qarorining 5-bandida **Vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari, ularning vazifalari belgilab qoʻyilgan, masalan:** yetim bolalarni va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadilar; yetim bolalar va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar haqidagi maʼlumotlarning axborot bazasini yuritadilar, maʼlumotlarni Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligining maʼlumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadilar, shuningdek davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etishlari belgilab qoʻyilgan;[5]

G.Ammonning fikricha, xar bir odamda tajovuskorlik xususiyati mavjud, ular tajovuskorlik xususiyati bilan tugʻiladilar. Lekin normal rivojlanish natijasida ularda yaratuvchanlik tajovuskorlik yuzaga keladi, va u asta – sekinlik bilan ijobiy – garmonik rivojlanishga oʻzgaradi.¹

A.V.Mudrik tomonidan olib borilgan emperik tadqiqotlari natijalari asosida aytish joizki, ijtimoiylashuv jarayoni insonning ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiy avtonomlashuvi uygʻunligi asosida namoyon boʻladi.[6] Nazariyamizda, muvoffaqiyatli ijtimoiylashuv jarayoni ijtimoiy muhit sharoitida insonning faol moslashuvi va jamiyatda qabul qilingan meʼyorlarga nisbatan munosabatida aks etadigan xulq – atvordagi barqarorlik orasidagi muvozanatda namoyon boʻladi.

B.H.Чумаков tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida jismoniy madaniyat vositasida bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish masalasi oʻganilgan boʻlib, unda bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarni shaxsini shakillantirishda jismoniy madaniyatni roli, uni ahamiyati va pedagogic shart – sharoitlari masalasi yoritib berilgan.Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari asosida u quyidagi fikrlarni bildiradi: bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarni shaxsini shakillantirish uchun ularda nafaqat jamiyatdagi oʻz – oʻrnini belgilab olish, oʻziga boʻlgan ishonchni uygʻotish, balki oʻz – oʻzini bilish, oʻzini adekvat baxolash kabi sifatlarni shakillantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Shuningdek, bolalar uyi tarbiyalanuvchilari shaxsini shakillantirishga taʼsir koʻrsatuvchi jihat sifatida toʻristik va oʻlkashunoslik kabi tadbirlardan keng foydalanish ham samarali boʻladi.²

Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiylashuvida, ularni xayotiy faoliyatga tayyorlashda qadriyatlar tizimini shakillantirish muhim ahamiyatga ega boʻlib, ularda qadriyatlar tizimini shakillantirish jarayoni murakkab boʻlib, bu jarayon koʻjihatdan mehriboonlik uyidagi sharoit, ijtimoiy qadriyat va ijtimoiy meyorlarni oʻzlashtirilishi bilan bogʻliq hisoblanadi. Shuning bilan birga, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar doimiy ravishda bolalar

¹ Mudrik .A.V. «Основы социальной педагогики»– М.;ASADEMA

² Mudrik .A.V. «Основы социальной педагогики»– М.;ASADEMA, 2006

jamoasida yashaganligi uchun oilada bolaga bo'lgan munosabat, etibor va g'amxo'rlikdan mahrum ekanliklari ham bola shaxsini shakillanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mehribonlik uyi o'smir va o'spirinlik yoshidagi bolalar uchun oxirgi boshpana hisoblanadi, chunki keyin ular uchun mustaqil hayot boshlanadi, ular ijtimoiy hayotga jamiyatga qo'shiladilar, mustaqil hayot haqida tasavvurga ega bo'lmagan bolalarning ijtimoiylashuvi og'ir kechishi mumkin, ular hayotda qiynalishi, adashishlari, xato qilishlari mumkin, bu esa ularning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori bo'ladi.³

Demak, aytish mumkinki, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar o'zlariga o'xshagan bolalar bilan birlashishga xarakat qiladilar, bunday bolalarda norasmiy jamoada qat'iy o'rnatilgan tartib bo'lmaydi, doimiy muloqotga, birga faoliyat yuritishga zarurat tug'ilmaydi, darslarni qoldirganlik holatini muxokoma qilmaydilar, ularda faqat bo'sh vaqtni birga o'tkazish ehtiyoji bo'ladi va qatilylik, dadillik, uddaburonlik qadrlanishi kasb etadi. Bunday xolatda ular norasmiy guruh ta'sirida jinoiy ishlarga aralashib qolishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki mehribonlik uyining pedagogic jamoasi tarbiyalanuvchilar bilan do'stona aloqa o'rnatish va bolalarning tabiatiga mos munosabatda bo'lish, ularni kasb hunarga yo'naltirish ishlariga mehr bilan astoydil, chindildan yondashsalar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvini ta'minlagan bo'lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yetim bolalarga oid muhim qarori. Janiyat. 2019-yil 11 fevral kuni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika darslik. «Toshkent»2009,
4. Berns R. Razvitiya Ya-kontseptsii i vospitaniya. M. 1986 s. 159
5. Абдурасулов, Р. А., & Qarshiboyeva G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
6. Абдурасулов, Р. А., Qarshiboyeva G. Психологик маслахат. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
8. Karshibayeva, G. (2021). Диагностика суицидального поведения у подростков. *Вестник интегративной психологии*, (22), 84-89.
9. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.

³ Аммон Г. «Мозг обучения. Здоровье». М.1989